

Dadajonova Jamilaxon Mirzakarimovna

Farg'ona viloyati Quva tumani 26-maktab tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi.

Kalit so'zlari: Ommaviy axborot vositalari, bazaviy daraja, salbiy xarakter, media madaniyat.

KIRISH

Xavf bu – biror bir zarar yetkazish, ya'ni xavfsizlik ob'ektining strukturasi yoki boshqa xususiyatlarini o'zgartirish orqali uning bardoshlilik va raqobatbardoshlilik salohiyatini tushirish ehtimolidir. Yuqoridagi tushunchada xavf ma'lum bir sub'ektlar va tuzilmalarning moddiy va ma'naviy manfaatlariga jiddiy zarar etkazadi, bu sub'ekt va tuzilmalar xavfsizlikning sub'ektiv kategoriyalarini tashkil etadi. Xavfsizlik asosida bu sub'ektlarning hayotiy muhim manfaatlarini yaratadi.

Xavfsizlik atamasi dastavval harbiy fenomen sifatida yuzaga kelgan. "Xavfsizlikning mazkur tushuncha haqida XX asrning 50 - yillarida ilk bor xavfsizlikning harbiy aspektlarini mujassam etgan tor kategoriyalar sifatida gapirila boshlanadi". Ikkinchi jahon urushida va "Sovuq urush" ga qadar davlatning siyosiy – iqtisodiy ustunligi ularning harbiy qudrati va qo'l ostidagi hudud jihatidan bo'sundirgan birliklar va koloniyalar bilan belgilanar edi. Davlatlar o'z hududlarini kengaytirish va ta'sir doirasiga kiradigan hududlarni ushlab turishda bevosita harbiy kuchga tayanar edi. Shunday qilib, mintaqaviy xavfsizlik gegemon davlatlarning o'z xoxish irodasiga ko'ra dunyoni geografik jihatdan bo'lib olgan hududlarida harbiy chegaraviy kuchlar yordamida bevosita ta'minlar edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda asosan ikki kuch hukmronligi boshlandi. Bu kuchlar o'zining kapitalistik va sotsialistik g'oyalari asosida dunyoni ikki qitb sifatida shakllantirdi. Mazkur davr tadqiqotchilar tomonidan xavfsizlik sohasida "strategik tadqiqotlar" ning "oltin davri" sifatida baholanadi. Uning doirasida harbiy soha havfsizlik muammolarini tadqiq etishning ustivor yo'nalish, maxsus va umumiy harbiy kuch esa – milliy xavfsizlikning yagona samarali vositasi (quroli) sifatida qaralgan. Shu bois, o'z g'oyalari nisbatan "dushman timsoli" va harbiy tahdidning mavjudligi xavfsizlikning boshlang'ich elementi bo'lib xizmat qilgan. Nazariy va amaliy ma'noda xavfsizlik tahdidlarni boshqarish bilan uyg'un holda ko'rilgan. Bu davrda endilikda xavfsizlik sub'ektlari tizimida suverent davlat markaziy o'rin egallay boshladi. Bu o'rinda milliy havfsizlik va davlat xavfsizligi markaziy o'ringa chiqadi.

Davlatning yoki mamlakatning xavfsizligi to'g'risida so'z yuritilganda ulamolar fikrlari o'rtasida ko'plab qarama-qarshiliklar mavjud. Shu sabab, davlat xavfsizligiga nisbatan qaysi atamani ko'proq mos kelishi va shunga mos uning faoliyati asosiy prinsiplarini

belgilab olishdan iborat. Bunga sabab – davlat yoki har qanday mamlakat manfaatlari mushtarakligi asosida turli xil millat va elatlardan tashkil topgan aholisi ya'ni – fuqarolaridan iboratdir. Bu fikrlarni asoslar ekan P. G. Belov shunday mazmundagi argumentni ilgari suradi : “ mavjud (milliy) xavfsizlik subektlari tizimi – shaxs, jamiyat va davlat – “ mavhum va mujmal , manfaatlar esa keskin ravishda individuallashtirgan , o'ta subektiv, ajratish murakkab, odatda, bir –biriga qarama –qarshi .Va , aksincha, o'z ichiga xalqlar , mamlakatlar , ularning hududlari va turmush tarzini qamrab olgan etnotizim aniq va o'ziga xosdir”. Shuning uchun xavfsizlikning asosiy ob'ekti normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan “ shaxs, jamiyat , davlat manfaatlari “ emas , balki turmush tarsi va hududiga ega fuqarolar bo'lishi kerak”. Biz xavfsizlik va uni keltirib chiqaruvchi tusunchalarni ko'rib o'tdik . Endi xavfsizlikning turlari va darajalarini tashkil qilib chiqadigan bo'lsak, xavfsizlik turlari sifatida u qaysi sib'ektlar va birliklarning manfaatlarini himoya qilishi va ifoda etishiga ko'ra bo'lishi mumkin . Bundan kelib chiqadiki, xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladi. Demak , o'z o'zidan xavfsizlik turlariga - shaxs xavfsizligi , jamiyat xavfsizligi va davlat xavfsizligini ko'rsatishimiz mumkin. Shaxs xavfsizligi – shaxning huquq va erkinliklarini amalga oshirilishini ta'minlovchi shart- sharoitlar majmui yoki shaxsning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganligi holati sifatida ta'riflanadi. Shuningdek , doimiy barqaror tinchlik sharoitlarida o'z qonuniy huquq va erkinliklarini to'siqlarsiz yuzaga chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat xavfsizligi – jamiyatning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini saqlanishini hamda muhofaza etilishini ta'minlovchi shart- sharoitlar majmuidir. Jamiyat xavfsizligi jamoat tashkilotlari, huquqiy normalar hamda tegishli shart – sharoitlarni shakllanishini kafolatlovchi taraqqiy topgan ijtimoiy ongini va ijtimoiy sherikchilikni taqazo etadi. Xavfsizlik sube'ktlari uchligida – shaxs, jamiyat va davlat hamda ularning manfaatlarining tizimida jamiyat xavfsizligi milliy xavfsizlikning nisbatan sub'ektiv - individual va asosan kollektiv elementi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtiboslarga ko'ra xavfsizlikning inson va jamiyat hayotida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, milliy, davlatlararo siyosiy, tibbiy ya'ni sog'liqni saqlash xavfsizligi, elektr xavfsizligi, texnika xavfsizligi, oziq- ovqat va nooziq ovqat maxsulotlari xavfsizligi, atrof muhitni muxofaza etish , yo'l harakati xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, axborot va kibr xavfsizlik kabi tarmoqlari mavjud. Asiyatga ko'ra jamiyatda xavfsizlik texnikasi, aniqrog'i mehnat muhofazasi xavfsizligi mavjud edi. Demak, xavfsizlik texnikasi – mehnat muhofazasi bo'limlaridan biri bo'lib; mehnat qiluvchi hodim uchun ish jarayonida vujudga keladigan xavfli omillarning ishlovchilarga zararli ta'siri oldini olishga doir tashkiliy va texnik tadbirlar hamda vositalar majmui . Ularni yaratish va ishlab chiqarishda qo'llash ishlari belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yoriy texnik hujjatlar (standartlar, qoidalar, me'yorlar, instruksiyalar) asosida amalga oshiriladi. Tashkiliy tadbirlar: ishchilarga xavfsiz va zararsiz ish usullari to'g'risida yo'l yo'riqlar berish ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi asoslarini o'rgatish ; mehnat qilish va dam olish qonunlarini tadbir etish kiradi. Texnik tadbirlar ma'lum me'yorlar va qoidalarga asoslanadi. Bunda insonning ruhiy , anatomik, fiziologik xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan mashinaning boshqarish detallarini inson uchun qulay yerga joylashtirish, ish vaqtida zararli chang , gaz chiqmasligini ta'minlash zarur, xavfli ta'sirlardan himoya qilish uchun

to'siqlar qilinadi, ogohlantiruvchi belgilar va plakatlar osib qo'yiladi. Ko'pincha ishlayotgan mashinalarning uzellari bilan bo'liq qurilmalar(electron qurilmalar, fotoelement, avtomatik saqlagich) dan foydalaniladi. Bularga saqlagich

klapnlari, vkluchatellar , eruvchan saqlagichlar shtivlar va boshqalar kiradi. Xavfli zararli ishlarni bajarishda jarayonlarni uzoqdan turib boshqarish usuli yaxshi samara beradi. Himoya qilishda signalizatsiyadan foydalaniladi. Jihozlarni yurgizib yuborishdan oldin ularning ishi tekshiriladi , sinaladi, hamda davlat inspeksiyasi nazorati ostida bo'ladi . Namlik havoning tozaligi shovqinlar nurlanish ta'siri va boshqa jihatlar doimo nazorat qilinadi. Xavfsizlik texnikasining muayyan sohalarida ishlaydigan kishilar qoidalarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari (kiyim bosh , poyabzal , ehtiyot belbog'i, ko'zoynak va boshqalar)dan foydalanadi. Har bir korxonada xavfsizlik texnikasi uchun ma'muriyat javobgar hisoblanadi.

Men shu jarayonlarni inobatga olib, bugungi media bozorda ham axborotlarni tayyorlovchi axborot (mahsulot) yetkazib beruvchi va iste'molchi ishtirok etishini ta'kidlamoqchiman. Tayyorlovchi bu – g'oya muallifi – materiallarini to'playdi, tahlil qiladi, mediamatni tayyorlaydi, uzatadi; mahsulot (axborot) – matn, belgi, surat va ramzlarda ifodalanadigan ma'lumot; yetkazuvchi (kanal) – axborotni uzatish vositasi (media); iste'molchi- axborotni oluvchi , o'rganuvchi, talqin qiluvchi shaxs tushuniladi. Buyuk davlat va jamoat allomasi Mahatma Gandi aytganidek “ Men uyumning eshik va derazalarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida, eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlaydigan darajada ochib ham qo'ya olmayman ...” – degan edi. Darhaqiqat , aqlli insonning alomati shuki, yolg'onga ishonmaydi, o'zi ham qo'llamaydi; xiyalga uchmaydi, o'zi ham hiyla qilmaydi ; yaxshi so'zlar eshitadi, o'zi ham yaxshi so'zlaydi; mug'ombirlik qilmaydi, donolar bilan birga yuradi; shubhaga bormaydi, o'zi ham soxtalikdan yiroq bo'ladi. Biz yuqori texnologiyalar davrida yashar ekanmiz; istalgan ma'lumotni, o'zimizga ma'lum bo'lgan har qanday axborotni izlashda internet manbaalaridan ko'proq foydalanishga harakat qilamiz. Bu ma'lumotlar qay darajada ishonchli deb hisoblaysiz? Uni qanday aniqlash mumkin? Internetdan tez-tez foydalanib turamiz, bu esa bizga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, lekin uning ishonchlilik darajasini yuqori deb ayta olamizmi? Bu borada ko'p yillik pedagogik faoliyatim doirasida o'quvchilarimga va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilariga bir tushunchani bot-bot takrorlayman inson faqat va faqat o'z ehtiyojlarini qondirishda o'zining va o'zgalarning manfaatlariga zid bo'lmagan tartibda , tarbiya doirasida faoliyat yuritishsa maqsadga muvofiq bo'ladi .

So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini yanada oshirdi. An'anaviy tarzda mediaiyaviy bilim shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun media - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Media nima inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada

radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarini ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir.

Madaniyatshunoslikda media madaniyat deganda 20-asrda ommaviy axborot vositalari ta'sirida paydo bo'lgan va shakllangan zamonaviy G'arb kapitalistik jamiyati tushuniladi. Bu atama ommaviy axborot vositalarining nafaqat jamoatchilik fikriga, balki did va qadriyatlarga ham ko'rsatadigan umumiy ta'siri va intellektual ta'sirini anglatadi.

Muqobil atama, ommaviy madaniyat, XX asrgacha ommaviy san'atda bo'lgani kabi, bunday madaniyatning o'z-o'zidan ommaning o'zida paydo bo'lishini anglatadi. „Mediamadaniyat“ iborasi esa bunday madaniyat ommaviy axborot vositalarining mahsuli ekanligini bildiradi.

Ommaviy axborot vositalari, reklama va jamoatchilik bilan aloqalarga yo'naltirilgan media madaniyat ko'pincha ommani manipulyatsiya qilishga qaratilgan tizim sifatida qaraladi. Korporativ ommaviy axborot vositalari asosan dominant mafkuralarni ifodalash va ko'paytirish uchun ishlatiladi. 1940-yillarda bu tendentsiyaning rivojlanishida Teodor Adorning ishi yaqqol namoyon bo'ldi. Media madaniyati iste'molchilik bilan bog'liq va shu ma'noda muqobil ravishda „iste'mol madaniyati“ deb nomlanadi.

Yangiliklarni ommaviy axborot vositalari olimlar va filologlardan ma'lumot oladi va uni keng jamoatchilikka yetkazadi, ko'pincha jozibali va hayratlanarli elementlarga e'tibor beriladi. Masalan, katta pandalar (Xitoyning chekka o'rmonlarida yashaydigan turi) katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan parazit qurtlardan farqli o'laroq, ommabop madaniyatning keng tarqalgan elementlariga aylandi.

Xanna Arendtning 1961 yildagi „Madaniyatdagi inqiroz“ asarida „ommaviy axborot vositalari madaniyat sanoatining talablariga javob berishga olib keladi“. Biroq, Syuzan Sontag ta'kidlashicha, bizning madaniyatimizda eng „tushunarli va ishonarli qadriyatlar“ ushbu sohadan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi, bu „jiddiylikning loyqa standartlarini talab qiladi“. Natijada „befarq, yuzaki va o'ylamasdan zo'ravonlik“ mavzulari odatiy holga aylanadi. 1950-yillardan boshlab televidenie jamoatchilik fikrini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib kelmoqda. Rozenberg va Uaytning „Ommaviy madaniyat“ kitobida Makdonald „ommaviy madaniyat — bu chuqur voqeliklardan (o'lim, mag'lubiyat, fojia) va shuningdek, oddiy o'z-o'zidan paydo bo'ladigan zavqlardan foydalanadigan qadrsizlangan, ahamiyatsiz madaniyat“ deb ta'kidlaydi. Van den Xagning ta'kidlashicha, „barcha ommaviy axborot vositalari oxir-oqibat odamlarni shaxsiy tajribadan uzoqlashtiradi va uni qaytarib berishni talab qilib, ularning bir-biridan, haqiqatdan va o'zlaridan ma'naviy izolyatsiyasini kuchaytiradi“. Tanqidchilar „yuksak san'at va chinakam xalq madaniyati o'rnini eng past umumiy denominatorni qondirish maqsadida konveyerda ishlab chiqarilgan dabdabali sanoat artefaktlari bilan almashtirildi“ deb afsuslanishmoqdalar. Bu „ommaviy madaniyat Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi va va global ommaviy axborot konglomeratlari qo'lida ommaviy madaniyat kuchining kontsentratsiyasiga olib keldi“. Ommaviy bosma, ommaviy axborot vositalari yangiliklar va ma'lumotlar miqdorini qisqartirdi va ularni „qo'rquv, noto'g'ri qarashlar, paranoyya va tajovuz“ tarqalishini kuchaytiradigan ko'ngilochar yoki nozik faktlar bilan almashtirdi.

Televideniye va kino tanqidchilarining ta'kidlashicha, telekanallar „yorqin, sun'iy va ommabop“ga e'tibor qaratish orqali yuqori reytinglarni olishni maqsad qilgani sababli, telemahsulot sifati yomonlashgan. Kino ijodida „Gollivud madaniyati va qadriyatlari“ tobora ustunlik qilib kelmoqda. Gollivud filmlari o'zgarimoqda: „hayratlantiruvchi qadriyatlar va sun'iy hayajon“ ni ta'kidlaydigan va tajovuzkorlik, qasos, shafqatsizlik va ochko'zlik kabi asosiy instinktlarga asoslangan mavzularga maxsus effektlardan foydalanadigan stereotipli filmlar yaratilad.

Xulosa o'rnida, Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adorno T. (1963) Пересмотренная индустрия культуры(ingl.)o'zb.)
2. Bignell, Jonatan (2007) Postmodern media madaniyati
3. Debord (1977) [1967] Tamosha jamiyati, Fredy Perlman va Jon Supak tomonidan tarjima qilingan (Black & Red, 1970; rev. Ed. 1977). Library.nothingness.org saytida onlayn (kirish sanasi=2011-08-20)
4. Debord (1994) [1967] Tomosha jamiyati, Donald Nicholson-Smith(ingl.)o'zb. tomonidan tarjima qilingan) (Nyu-York: Zona kitoblari). Cddc.vt.edu saytida onlayn (kirish sanasi=2011-08-20)
5. Dunkan, Barri (1988). Ommaviy axborot vositalari va ommaviy madaniyat . Toronto, Ont.: Harcourt, Brace & Co. Kanada. ISBN 0-7747-1262-7
6. Jansson, André (2002) Iste'molni vositalashtirish, Iste'mol madaniyati jurnali, 2002 yil mart. 2 yo'q. 1 5-31